

Zamonaviy guzar – mahalla ko‘rki

Sirdaryo viloyati ulkan iqtisodiy salohiyati bilan mamlakatimiz taraqqiyotida alohida o‘ringa ega. Rivojlangan sanoat tarmoqlari va qishloq xo‘jaligi, fidoyi insonlar mehnati barcha sohalarni izchil taraqqiy ettirishda muhim omil bo‘lmoqda. Viloyat markazi, shahar va qishloqlar qiyofasi tubdan o‘zgarib, obod bo‘lib, aholining hayot darajasi yuksalib bormoqda.

Zamonaviy qishloq infratuzilmasini yaratish maqsadida Yurtboshimiz rahnamoligida davlat dasturi negizida ishlab chiqilgan zamonaviy me‘morchilik talablariga javob beradigan va bizning iqlim sharoitlarimiz hisobga olingan shinam hamda qulay, namunaviy loyihadagi uy-joylarning butun mamlakatimiz miqyosida, shu jumladan, Sirdaryo viloyatida qurilayotganligi mahallalarimiz qiyofasini tubdan o‘zgartirib yubordi.

O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining xomiyligida Sirdaryo viloyati, Guliston shahrining «Taraqqiyot» mahallasi “Namunali mahalla” loyihasi asosida yangi ko‘rinishga keltirildi. Hususan, joriy yilning 22 mart kuni Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi “Taraqqiyot” mahalla fuqarolar yig‘inida zamonaviy bolalar maydonchasi qurilib foydalanishga topshirildi. Bu yerda barpo etilgan bolalar o‘yingohi esa nafaqat bolajonlarimizni, balki ota-onalarni ham hursand qildi. Eng muhimi, mahallaning bolalari yaxshi dam olib, hordiq chiqarishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. “Taraqqiyot” mahallasidagi bolalar maydonchasini ko‘rkiga yanada ko‘rk qo‘shish maqsadida, 62 tup archa ko‘chati, 200 tup terak hamda 4000 tup rayxon ko‘chatlari o‘tqazilib, barcha anjomlar bolalarning yoshi va qiziqishi hamda sanitariya va xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda o‘rnatildi.

- Biz bu mahalladagi bolalar o‘yingohini imkoni boricha har tomonlama bolalarga qulay, hursandchilik va quvonch ulashadigan o‘yingohni qurishga harakat qildik, deydi “Akfa plyus sifat” mas’uliyati cheklangan jamiyat rahbari. Har bir anjomlar ekologik toza materiallardan tayyorlangan bo‘lib, yilning har qaysi faslida o‘zining yorqin ranglari bilan ko‘zingizni quvontirib, xizmat qiladi.

Ma’lumot o‘rnida, Sirdaryo viloyati, Guliston shahrining “Taraqqiyot” mahalla fuqarolar yig‘ini, Guliston shahar hokimining 1994-yil 16-martdagi 112-sonli qarori asosida tashkil etilgan. Mahallada 840 ta xo‘jalik va 950 ta oila istiqomat qiladi, aholisi 4172 nafarni tashkil etib, shundan mehnatga layoqatli aholi 1860 nafarni, nafaqaxo‘rlar esa 370 tani tashkil etadi. Mahalla hududida 1 ta bog‘cha, 2 ta maktab, 2 ta kollej mavjud bo‘lib, maydoni 2.5 kv.km.dan iborat.

- Avvalom bor O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan bolalarimiz uchun chiroyli va jahon andozalariga mos ravishda qurib berilgan bolalar maydonchasi uchun mahallamiz nomidan o'z minnatdorchiligimizni bildirib qolamiz. To'g'risi, bu kutilmagan sovg'a bo'ldi bizning mahallamiz ahliga. Mahallamiz bolalari endi oldingidek tuproq va loylarda emas, aksincha maxsus futbol uchun qurilgan bir kichik futbol maydonchasida to'p surishadilar. Mahallamiz fuqarolari ham bemalol bo'sh vaqtlarida tashqarida o'tirib, hordiq chiqarishlari mumkin, buning uchun esa alohida o'rindiqlar o'rnatilgan. Ochig'i, bu bolalar o'yingohi mo'jiza kabi odamni o'ziga tortadi deydi, "Taraqqiyot" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Abdurashid Abduraliev

Bugungi kunda yurtimizda namunaviy loyihalar asosida shinam uy-joylar, madaniy-maishiy ob'ektlar, xizmat ko'rsatish shaxobchalari, infratuzilma tarmoqlari barpo etilayotgani oilalarimizning tinchligi, xonadonlar obodligini ta'minlayapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu ulkan bunyodkorlik samarasida, mamlakatimizning qiyofasi tubdan o'zgarib, kundan-kun chiroy ochib borayotgani yurtdoshlarimiz qalbida faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otmoqda.